
RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda bir guruh fuqarolar tomonidan muammolarini ijobiy hal etilishida amaliy yordam so'rab qilingan videomurojaat Farg'ona shahar hokimligi Ishchi guruhi tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish jarayonida sayyor qabullar davomida fuqarolar tomonidan bildirilgan har bir murojaat ro'yxatga olinishi hamda shu kunning o'zidan keyingi haftada o'tkaziladigan qabulga qadar Ishchi guruhlari tomonidan o'rganilib, javob xatlari yuborilishi aniqlandi.

Xususan, joriy yilning o'tgan davri mobaynida shahar hokimligi tomonidan 24 marta sayyor qabul o'tkazilgan bo'lib, unda 2094 ta murojaat qabul qilingan. Murojaatlarning 1909 tasi ijobiy hal etilgan. So'nggi haftalarda o'tkazilgan qabullarda tushgan 185 ta murojaatlar ham o'rganilib, ijobiy hal etish choralari ko'rilmogda.

Farg'ona shahar hokimligida takroriy murojaatlarni o'rganish bo'yicha ham Ishchi guruhi tuzilgan bo'lib, ularni ham qayta ko'rib chiqish, barcha masalalarga otsdinlik kiritish, ijobiy hal etish yoki huquqiy tushuntirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

Videomurojaatda bildirilgan muammolar Ishchi guruhi tomonidan o'rganildi. Barcha murojaatlar bo'yicha olib borilgan ishlar yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Jumladan, "Jomiy" MFY Ozodlik ko'chasi 10/15-uyda yashovchi fuqaro sayyor qabulda Turkiya davlatida vafot etgan nabirasi Barnoxon Mamajonovani yurtimizga olib kelish harajatlari uchun moddiy yordam so'rab murojaat qilgan. Mazkur murojaat ham ijobiy hal etilib, fuqaroga 7 mln. so'm mablag' berildi.

"Ma'rifat" MFY Nurobod ko'chasi 10/9-uyda yashovchi fuqaro Nadejda Mel'nikova sog'lig'ini tiklash masalasida murojaat qilgan. N.Mel'nikovaga may oyi davomida "Saxovat va ko'mak" jamg'armasidan 600 ming so'm moddiy yordam ajratilgan. Fuqaroga zaruriy dori-darmon hamda 1 mln. so'm moddiy yordam berildi. Fuqaro istagi bo'yicha 29 may kунidan Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi terapeya bo'limida 10 kun davomida muolaja olishi belgilandi.

"O'zbekiston" MFY A.Qodiriy ko'chasi 100/62-uyda yashovchi Natalya Kosyanenko davolanish bo'yicha murojaat qilgan edi. Fuqaroga joriy yil davomida "Saxovat va ko'mak" jamharmasidan 1.5 mln. so'm dori-darmonlar sotib olish uchun mablag' ajratilgan edi. O'rganish davomida fuqaroning hoxishiga ko'ra, 1 iyunь sanasidan Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasining terapeya bo'limiga davolanish uchun yotqizilishi belgilandi. Shuningdek, zaruriy ehtiyojlari uchun 1 mln. so'm moddiy yordam berildi.

"Bobur" MFY A.Qodiriy ko'chasi 40/72-uyda yashovchi Dilfuza Mamajonovanning farzandini davolanishida amaliy yordam so'rab qilgan murojaati o'rganilib, shahar tibbiyot birlashmasida tibbiy ko'riklardan o'tkazilmogda. Tabiiy ko'rik natijalariga ko'ra, shahar tibbiyot birlashmasida 29 may sanasidan davolash ishlarini olib borish belgilandi. Fuqaroga zaruriy ehtiyojlari uchun 1 mln. so'm moddiy yordam berildi.

"Navbahor" MFY 5/15-xonadonda yashovchi Zulhumor Zoidovanning ham qabul davomida yashab turgan xonadonini birlashtirish masalasidagi murojaati ham o'rganildi. Bu murojaat Uy-joy komissiyasi tomonidan qonunchilikdagi belgilangan tartibda ijobiy hal etish choralari ko'rildi.

"To'qimachilar" MFY X.Xo'jaev ko'chasi 53/26-uyda ro'yxatda turuvchi O'lga Kokinaning yuqori qavatdagi qo'shnisining ehtiyotsizligi oqibatida uyiga suv toshganligi bo'yicha qilgan murojaati o'rganildi. Murojaatda fuqaro qo'shni tomonidan o'rnatilgan titan uskunasini ishlatmasligi so'ralgan. O'rganish jarayonida titan tarmoqlardan uzilgani, mazkur xonadonga zamonaviy suv istish moslamasi qo'yilgani aniqlandi.

"Shodlik" MFY Qo'rg'ontagi ko'chasi 137-uyda yashovchi fuqaro Matlubaxon Hakimova hamda "Muruvvat" MFY Farg'ona ko'chasi 53/26-uyda yashovchi fuqaro Azizxon Yuldashevlarning yer ajratish masalasida qilgan murojaatlari ham Ishchi guruhi tomonidan o'rganilib, qonunchilikda belgilangan tartib tushuntirildi.

Shuningdek, o'rganish davomida fuqaro Matlubaxon Hakimovanning uy-joy qurilishi ishlarida amaliy yordam berish bo'yicha qilgan murojaati ham ijobiy hal etilib, 100 dona shifer va 1500 kg sement berildi. Sog'lig'ini tiklash bo'yicha qilgan murojaati yuzasidan tibbiy ko'rik o'tkazilib, kelgusi haftada shahar tibbiyot birlashmasi shifoxonasida davolanishi belgilandi.

